



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Abdullayev Azimjon Abduvali o'g'li<sup>1</sup>  
Shaamirova Yulduzxon Kabildjanovna<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> NamDU 5A111701-Talim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi  
yo'nalishi 2-bosqich magistranti

<sup>2</sup> TDPU, Boshlang'ich ta'lim fakulteti, Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi  
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHI NUTQIGA E'TIBOR- KELAJAKKA E'TIBOR

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilar nutqi, uni rivojlantirish yo'llari, unga qo'yilgan metodik talablar, to'g'ri nutqning ta'limdagi ahamiyati, nutq o'stirishning samarali usullari xususida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetentlik, nutq o'stirish, boshlang'ich ta'lim, nutqiy kamchiliklar, nutq uchun kurash, "Tabiatdagi bog'lanishlar", "Noto'g'ri alternativa".

**Аннотация:** В статье описывается речь учащихся, способы ее развития, методические требования, важность правильной речи в обучении, эффективные методы развития речи.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, развитие речи, начальное образование, дефекты речи, борьба за речь, «связи в природе», «неправильная альтернатива».

**Abstract:** The article describes the speech of pupils, ways of its development, methodological requirements, the importance of correct speech in teaching, effective methods of developing speech.

**Key words:** communicative competence, speech development, primary education, speech defects, struggle for speech, “connections in nature”, “wrong alternative”.

**Kirish.** Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda ta’lim va tarbiya masalasi e’tiborimizni qaratishimiz lozim bo’lgan eng asosiy sohalardan biri ekanligi ma’lum. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Bizni hamisha o’yantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so’z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o’zgaryapti. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o’z davrining talablari bilan uyg’un bo’lsin. Lekin ayni paytda o’zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlarning avlodimiz”<sup>1</sup>- degan da’vatlari ularning qalbida doimo aks-sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.”, “Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so’rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman.”<sup>2</sup>- degan ushbu firklari ham yuqoridagi so’zlarning amaliy isboti sifatida qaralishi mumkin.

Mustaqillik yillarida ta’lim sohasi tubdan yangilanib, o’qitishning zamonaviy usul va metodlarini amalda qo’llash bo’yicha ulkan tajriba orttirilmoqda. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o’quv-laboratoriya anjomlari, zamonaviy o’quv-metodik bazalar tatbiq etilmoqda.

Bugun zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Demak, umumiy o’rta ta’lim fanlarini o’qitishga zamon talablari asosida yondashish, ta’limda eng ilg’or texnologiyalarni qo’llash davr talabi. Umumiy o’rta ta’lim fanlarini o’qitishning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish,

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. M.-“Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent-“O’zbekiston” 2016

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh. M. 21-oktabr – “O’zbek tiliga davlat tili” maqomi berilganining 30 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

umumiy oʻrta va oʻrta maxsus-kasb-hunar taʼlimi boʻyicha davlat taʼlim standartlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, oʻquv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish maqsadida qabul qilingan quyidagi qonun va qarorlar taʼlim-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirishda muhim omil boʻladi. “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun talablari asosida qabul qilingan qarorda umumiy oʻrta taʼlimning yangi davlat taʼlim standartlari ilova tarzda berilgan. Yangi DTSning maqsadi –umumiy oʻrta taʼlim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilgʻor tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, maʼnaviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

**Asosiy qism.** Yangi DTS ga fanga oid kompetensiyalar bilan birga kommunikativ, axborot bilan ishlash, oʻz-oʻzini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, miliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kabi tayanch kompetensiyalar elementlari ham kiritildi. Kommunikativ kompetensiya bolaning ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda muloqotga kirisha olishi, muomala madaniyatiga amal qilishi, moslashuvchan va hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatiga ega boʻlishini nazarda tutadi.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasiga ega bola esa mediamanbalardan zarur maʼlumotlarni izlab topa olishi, saralashi, qayta ishlashi va ulardan samarali foydalanishi, media-madaniyatga ega boʻlishi lozim. Bunday oʻzgarishlar har tomonlama sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi saʼy-harakatlarni kuchaytirishga muhim asos boʻladi. Bu kelgusida yuqori malakali va raqobatbardosh, kompetentli mutaxassis-kadrlarni tayyorlash ishlarini yanada jadallashtiradi.

Ushbu kompetensiyalardan biri-kommunikativ kompetensiyadir. Kommunikativ kompetensiya oʻquvchilarning atrofdagilar bilan muomala qilish, oʻz nutqini boshqalarga toʻgʻri, aniq va ravon yetkazib bera olishini nazarda tutadi.



Nutq haqida fikr yuritar ekanmiz quyidagi fikrni ta'kidlab o'tishimiz lozim: "Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir"<sup>3</sup> ya'ni insonning ichki dunyosini ochib beruvchi kichik bir tilsim uning tili-nutqidir. Har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi va bu nodir boyligni dunyolarga bermaslikka hozir turadi qadim-qadim zamonlardan beri. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning quyidagi so'zlari o'zida ulkan ma'no aks ettiradi: "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrlil qo'shiqlariga quloq tutsin. Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalari, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar..."<sup>4</sup>.

Demakki, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir. Til ijtimoiy hayotda inson nutqi orqali o'z aksini topadi, til va nutq o'zaro bir- biriga bog'liq hodisalardir, ular bir-biriga solishtiriladi, qiyoslanadi, taqqoslanadi. Til va nutq xususida so'z olib borar ekanmiz "Insonni so'z ayladi judo hayvondin"<sup>5</sup> degan g'oyasining dalolati sifatida Alisher Navoiy nutq odobi, so'zga sohiblik, so'zning o'z va ko'chma ma'nosini va uning nutqdagi, hamda muloqotdagi o'z o'rnini bilish kabi fazilatlarni insonning axloqiy xususiyatlaridan biri deb hisoblaganligini, buni jamiyatga anglatish borasida ham amaliy, ham nazariy fikrlarni ilgari surganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Buyuk mutafakkir bobomiz fikrlaridan, nutq shunchalar katta kuchga ega va uning ahamiyati juda katta ekanligi ko'rinib turibdi. Shu boisdan bugungi kunda biz ta'lim jarayonida nutq uchun qanday kurashlar olib boryapmiz?,

<sup>3</sup> Hadislar to'plamidan (ziyonet.uz saytidan olindi)

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh. M. 21-oktabr – "O'zbek tiliga davlat tili" maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan

<sup>5</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. Toshkent-1967.



o‘quvchilar nutqini qanday yo‘llar bilan o‘stirib boryapmiz? degan savollar tug‘ilishi aniq va bu savollar o‘z o‘rnida o‘rinlidir.

Nutq kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va habar funksiyasini, o‘zaro fikrni hishayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilar tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmasi, gap, nutq aylanishlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti -nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutq o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi:

- 1) so‘z ustida ishlash;
- 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash.



Soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza boʻlib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bogʻlanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikaga asoslanadi.

Nutq oʻstirishda izchillik toʻrt shartni, yaʼni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil turlarini umumiy maqsadga boʻysundirish koʻnikmasini amalga oshirish bilan taʼminlanadi.

Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular oʻz fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqida oʻylab oladilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, «oʻylangan» (fikrlangan) nutqdir. Tashqi nutq, tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi. Fikrni ifodalash usuliga koʻra nutq ogʻzaki va yozma boʻladi. Ogʻzaki nutq koʻpincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida boʻladi.

Nutq tafakkur jarayonini oʻrganishning muhim vositasi boʻlib xizmat qiladi. Nutqdan oʻquvchining fikriy rivojining asosiy oʻlchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. Oʻquvchining barcha predmetlardan materialni oʻzlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola oʻz nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaratiladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib boʻlmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib etiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning oʻsishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirish boshqa oʻquv predmetlaridan oʻtkaziladigan mashgʻulotlar bilan ham uzviy ravishda bogʻlanadi. Ona tili darslarida oʻquvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar, ular kuzatishni, oʻylashni va koʻrganlari, eshitganlari, oʻqiganlari haqida turli bayon qilishni oʻrganadilar. Ona tili darslari bolalar lugʻatini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni turlicha tuzishni oʻrgatadi.



O'qish darsi va u bilan bog'liq xolda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat xodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala madaniyat haqida bilim beradi. Bu darsda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat yaratadi. Shu o'rinda o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish uchun "Tabiatdagi bog'lanishlar" va "Noto'g'ri alternativa(mulohaza)" usullarini samarali usul ekanligini ta'kidlab o'taman. Bu usul quyidagicha, "Tabiatdagi bog'lanishlar" o'yini. Bu usul o'quvchilarning og'zaki bog'lanishli nutqini samarali o'stiradi, darsning rivojlantiruvchi maqsadini amalga oshiradi. Buning uchun bizga ikkita kub kerak. Har bir tomonda biron bir tabiiy narsaning nomi yozilgan: quyosh, havo, tuproq va boshqalar. Bolalar kubiklarni uloqtiradi, tuproq biriga, qush boshqasiga tushadi. O'qituvchi: Sizing vazifangiz ushbu tabiiy ob'ektlar orasidagi aloqalarni topishdir. Kim topsa, harakat shunga o'tadi.

**O'quvchi:** Qurtlar tuproqda rivojlanadi, qushlar esa ularni yeyishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchi tabiatdagi ya'ni real hayotdagi voqealar asosida ikkita predmet o'rtasidagi bog'liqlikni anglagan holda bog'lanishli nutq hosil qiladi. Bu usulni yana bir yaxshi tomoni shundaki, bola o'zi nutq tuza olmasa o'zgalar nutqini ko'chirma gap tarzida ham ifoda etishi mumkin. Bu usul o'yin tarzida o'tkazilishi sababli qiziqarli va har qaysi o'quvchi bu o'yinda ishtirok etganligi uchun dars samarali bo'ladi, har bir o'quvchi esa o'z bog'lanishli nutqini yana bir bora o'stira olgan bo'ladi. "Noto'g'ri alternativa(mulohaza)" bu usul o'tgan mavzuni mustahkamlash yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida foydalaniladi va yuqori samara beradi. Bu usul orqali o'quvchilarga savollarga mantiqan, to'g'ri va keng qamrovda erkin fikrlash uchun yo'l ko'rsatiladi.

Masalan: 8 va 4 nechchi bo'ladi – 11 yoki 13?- bu savol, qaysi amalni bajarish kerakligi va og'zaki holda bajarish uchun;

Terakda nima pishadi – olma yoki shaftoli? – bu savol, savolga to'g'ri yondashib javobni izlash uchun, ya'ni terak qanday o'simlik deyilganda, aynan uning mevasiz daraxt ekanligiga urg'u berish uchun;



Kim tez suzadi – o‘rdak yoki jo‘ja?- bu savol esa mantiqiy fikrlash uchun, ya’ni kim? so‘rog‘iga shaxslar javob bo‘lishini anglash uchun;

O‘zbekiston poytaxti – Samarqand yoki Namangan? – bu savol, “tilimni uchida turibdi” “hozir aytaman” deydigan o‘quvchilar uchun yordamchi savol, bunday savollar ichki nutqi yaxshi, lekin tashqi nutqi hayajonlanish yoki stresslar orqali yo‘qolib qoladigan o‘quvchilarga tayanch vazifasini bajaradi.

Afrikada qanday hayvonlar yashaydi – mamontlar yoki dinozavrlar? Bunday savollar esa o‘quvchilarga keng qamrovda fikrlash uchun.

**Xulosa.** Haqiqiy ma’nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’tirof etilgan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari, o‘qituvchilarning nutqiy madaniyat mahorati, farzandlarimizning madaniy nutq ko‘nikmalari va malakalarini oshirish, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarbdir. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Yoshlikda olingan bilim- toshga yozilgan naqsh kabidir”, ya’ni nutq masalasiga yoshlikdanoq, boshlang‘ich sinflik davridanoq e’tibor qaratilsa, natijasi albatta kelgusi ta’lim jarayonlarida nafaqat ta’lim jarayonida albatta ijtimoiy hayotda o‘z samarasini beradi. Bolaga yoshlikdanoq to‘g‘ri so‘zlash, har qanday vaziyatda ham o‘z fikrini to‘g‘ri yetkazib bera olishini singdirib shakllantira olsak, bolajon kichik yoshidanoq turli xil vaziyatlarda o‘z nutqini mantiqan to‘g‘ri, izchil va albatta, aniq yetkazib bera olishini ta’minlay olsak, biz o‘ylagan maqsadimizga erisha olamiz. Bir so‘z bilan aytganda “Bolaning bugungi nutqiga e’tibor- uning kelajagiga e’tibordir!”

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. M. 21-oktabr – “O‘zbek tiliga davlat tili” maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi
2. Mirziyoyev Sh. M.-“Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent-“O‘zbekiston” 2016





3. Usmonova M. “Til va nutq o‘stirish metodikasi” ma’ruzalar matni Jizzax-2010.
4. Alisher Navoiy. Asarlar. Toshkent-1967.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)